



JIZZAX VILOYATI YANGIOBOD TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 23-oktabr

191-3-54-Q/25

Yangiobod tumani hokimligi

Yangiobod tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o'rta ta'limga to'liq qamrab olish yuzasidan tumandagi umumta'lim muassasalarining mikrohududlarini belgilash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6, 21¹-moddalari, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 27-moddasi, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomning 39-bandiga asosan, tumanda maktab yoshidagi bolalarni umumiy o'rta ta'limga qamrab olish jarayonida umumta'lim muassasalariga birlashtirilgan hududlar (mikrohudud)ni aniq belgilab olish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Yangiobod tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o'rta ta'limga to'liq qamrab olish bo'yicha umumta'lim muassasalariga birlashtirilgan hududlar (mikrohudud) ro'yxati 1-ilovaga, hududlar (mikrohudud) xaritasi 2-ilovaga asosan tasdiqlansin.

2. Maktab yoshidagi bolalarni umumiy o'rta ta'limga qamrab olish umumta'lim muassasasi pedagog xodimlari tomonidan bolalarni birma-bir (uyma-uy) ro'yxatga olish orqali amalga oshirilsin.

3. Tuman hokimining o'rinbosari (A.Nishonov), tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (E.Muxtorov), tumandagi umumta'lim muassasalari rahbarlari zimmasiga maktab yoshidagi bolalarni umumiy o'rta ta'limga to'liq qamrab olish, o'quvchilarning darslarga qatnashish holati yuzasidan monitoring olib borish va uning natijasida aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo'yicha zarur choralar ko'rish vazifasi topshirilsin.

4. Belgilansinki, tumandagi umumta'lim muassasalar rahbarlari o'zlari rahbarlik qilayotgan muassasaga birlashtirilgan hududdagi maktab yoshidagi bolalarni o'z vaqtida umumta'lim muassasasiga o'qishga jalb qilish uchun mas'ul hisoblanadi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-sonli “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 9-moddasiga asosan umumiy o‘rta ta’lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to‘ladigan yilda qabul qilinadi.

5. O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Yangiobod tuman bo‘limi (L.Rahmatov)ga, maktab yoshidagi bolalarni umumta’lim muassasalariga jalb etish jarayonida tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi hamda umumta’lim muassasalarga amaliy yordam berish tavsiya etilsin.

6. Tuman hokimligi axborot xizmati (S.Rayimov), “Yangiobod ovozi” gazetasi tahririyati (A.Muhammadiyev) mazkur qarorni hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin hamda mahalliy matbuotda chop etilsin va uning ijrosi bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni keng yoritib borish tavsiya etilsin.

7. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman hokimining 2024-yil 15-oktabrdagi 172-3-54-Q/24-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

9. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari A.Nishonov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



I.Qarshiboyev

Yangiobod tumani hokimining
2025-yil 23-oktabrdagi
191-3-54-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**Maktab yoshidagi bolalarni umumiy oʻrta taʼlimga qamrab olish boʻyicha
umumtaʼlim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud)**

ROʻYXATI

№	Maktab raqami	MFY nomi	Biriktirilgan hududlar
1.	1-maktab	Balandchaqir MFY	Balandchaqir MFYning Yangihayot koʻchasi, Ahillik koʻchasi, Olmazor koʻchasi, Bogʻishamol koʻchasi, Balandchaqir koʻchasi, Varqin koʻchasi, Istiqbol koʻchasi, Nurafshon koʻchasi, Qoʻrgʻoncha koʻchasi, Parkat koʻchasi, Yangiobod SHFYning Doʻstlik koʻchasining janubiy qismi
2.	2-maktab	Shodlik MFY	Shodlik MFYning Birlik koʻchasi, Bahor koʻchasi, Shodlik koʻchasi, Ezgulik koʻchasi, Chimguzar koʻchasi, Fidokorlar koʻchasi
3.	3-maktab	Sarmich MFY	Sarmich MFYning Qatorbogʻ koʻchasi, Jiydazor koʻchasi, Yangiariq koʻchasi, Turonshoh koʻchasidagi 117-145-uylar, Oʻrta qishloq koʻchasi
4.	4-maktab	Sovot QFY	Sovot QFYning Baxt koʻchasi, Navbahor koʻchasi, Navroʻz koʻchasi, Koʻpkarisoy koʻchasi, Yangibogʻ koʻchasi, Buyuk ipak yoʻli koʻchasi, Ziyolilar koʻchasi, Farobiy koʻchasi, Tokzor koʻchasi, Sovot koʻchasi, Kattasoy koʻchasi, Toʻqboy koʻchasi
5.	5-maktab	Xoʻjamushkent QFY	Xoʻjamushkent QFYning Gulbogʻot koʻchasi, Oqtepa koʻchasi, Erganakli koʻchasi, Feruz koʻchasi, Obi-hayot koʻchasi, Mevazor koʻchasi, Shox koʻchasi, Xonkeldi koʻchasi
6.	6-maktab	Doʻstlik MFY	Doʻstlik MFYning Navobod koʻchasi, Sarchashma koʻchasi, Bogʻiston koʻchasi
7.	7-maktab	Sarmich MFY	Sarmich MFYning Joʻlangar koʻchasi
8.	8-maktab	Doʻstlik MFY	Doʻstlik MFYning Nurli yoʻl koʻchasi, Bolgʻali koʻchasi, Qaropchi koʻchasi, Obod yurt koʻchasi
9.	9-maktab	Havotogʻ QFY	Havotogʻ QFYning Uchturgon koʻchasi, Zilolobod koʻchasi, Nihol koʻchasi, Qadriyat koʻchasi, Omad koʻchasi, Ibrat koʻchasi, Changovul koʻchasi, Iqbol koʻchasi va hududdagi 9-harbiy qism, 7-harbiy qism
10.	10-maktab	Doʻstlik MFY	Doʻstlik MFYning Terakli koʻchasi, Amir Temur koʻchasi, Diyor koʻchasi
11.	11-maktab	Havotogʻ QFY	Havotogʻ QFYning Qoʻshqand koʻchasi, Elobod koʻchasi, Usmon Nosir koʻchasi, Yangi Boʻston koʻchasi, Gulzor koʻchasi, Mevazor koʻchasi, Guliston koʻchasi, Buloqboshi koʻchasi, Yakkatut koʻchasi, Beshtom koʻchasi

12.	12-maktab	Yangiobod SHFY	Yangiobod SHFYning Barkamol avlod ko'chasi, Yoshlik ko'chasi, Taraqqiyot ko'chasi, Mustaqillik ko'chasi, Ziyokor ko'chasi, Tinchlik ko'chasi, Yangiobod ko'chasi, Istiqlol ko'chasi, Do'stlik ko'chasining shimoliy qismi, Saydon ko'chasi
13.	13-maktab	Sarmich MFY	Sarmich MFYning Soyguzar ko'chasi, Terakzor ko'chasi, Tushguzar ko'chasi, Tegirmonboshi ko'chasi, Sho'rcha ko'chasi
14.	14-maktab	Xo'jamushkent QFY	Xo'jamushkent QFYning Ma'rifat ko'chasi, Mash'al ko'chasi
15.	15-maktab	Sarmich MFY	Sarmich MFYning Turonshoh ko'chasidagi 1-82-uylar, Oqtom ko'chasi
16.	16-maktab	Sovot QFY	Sovot QFYning O'zbekiston ko'chasi, Chinobod ko'chasi, Ittifoq ko'chasi, Namuna ko'chasi
17.	17-maktab	Havotog' QFY	Havotog' QFYning Qo'riq ko'chasi, Toshqo'rg'on ko'chasi, Fayz ko'chasi
18.	18-maktab	Sarmich MFY	Sarmich MFYning Yangiariq ko'chasi, Xalqobod ko'chasi, Turonshox ko'chasidagi 83-115-uylar, Vatanparvar ko'chasi, Bodomzor ko'chasi, Hunarmandlar ko'chasi, Qatorbog' ko'chasi
19.	19-maktab	Yangiobod SHFY	Melobod qishlog'i, Yangiobod SHFYning Bunyodkor, Barkamol avlod, Sayqal, Fidokorlar ko'chalari

Yangiobod tumani hokimining
2025-yil 23-oktabrdagi
191-3-54-Q/25-son qaroriga
2-ilova

**Maktab yoshidagi bolalarni umumiy o'rta ta'limga qamrab olish bo'yicha
umumta'lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud) xaritasi**

